TALABALARNI GENDER TENGLIGI RUHIDA TARBIYALASHNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK JIXATLARI

U.U.Shukurova
GDPI dotsenti
S.Ch. Xaydarova
Guldu katta o‘qituvchi

Annotatsiya Ushbu maqolada yoshlarni gender tengligi ruhida tarbiyalashning ijtimoiy psixologik omillari ko’rib chiqiligan. Gender masalasiga oid tadqiqotlar o’tkazilib gender nazariyasining asosiy qoidalari bayon qilingan. Hozirgi kunda jamiyatimizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlar natijasida jamiyatning ijtimoiy talablaridan biri bu erkak va ayol huquqlari tengligini ta’minlashdir. Gender tushunchasi hotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat faoliatining barcha sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihati ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so‘zlar: Gender tushunchasi, gender tengligi, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, tashkiliy, huquqiy, ijtimoiy guruh, pozitsiya, qarashlar, ijtimoy muammolar, tazyiq, zo‘ravonlik, ijtimoiy psixologik omillar**.**

Respublikada bugungi kunda o‘zbek jamiyatining ijtimoiy tuzilmasida talaba-yoshlar aholining boshqa turli guruhlari o‘rtasida ijtimoiy faol bo‘lib, ilmga intiluychi va harakatchan hisoblanishadi. Talaba-yoshlarning ushbu xususiyatlarini hisobga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari

bu ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlarida hayot faoliyatining turli jabhalarida o‘zbek yoshlarining imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun kerakli va yaxshi sharoitlarni yaratib berish ko‘zda tutilgan.

Ta’lim tizimining turli muassasalari o‘sib kelayotgan avlodga nafaqat bilimlar hajmini beradi tarbiyalaydi, balki qadr-qimmatni, ta’lim olishni davom ettirishni, kasbiy tayyorgarlikni shakllantiradi, ijtimoiy pozitsiyasini aniqlashga yordam beradi, tayyor bo‘lgan mutaxassis qaysi pozitsiyaga tegishli ekanligini biladi. Shuning uchun, ijtimoiy orientatsiyani o‘rganish va yoshlarning hayot yo‘li dolzarb bo‘lib bormoqda. Bu masala O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 iyundagi «O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6017-sonli Farmonida ham o‘z aksini topgan.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Barqaror rivojlanishining Beshinchi maqsadini amalga oshirish doirasida Beshinchi maqsadning vazifalaridan biriga (Gender tenglik) muvofiq 2030-yilga kelib barcha xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to‘liq va samarali ishtirokini hamda yetakchilik qilish uchun teng imkoniyatlarni ta’minlash zarur. Bundan tashqari, ushbu maqsad davlatning turli darajalarida Davlat dasturlarini qabul qilish jarayonida gender tenglik tamoyillarini joriy qilishni o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida “Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar”, deb belgilangan. Demak, gender tengligining ham xalqaro, huquqiy ham konstitutsiyaviy huquqiy asosi kafolatlangan. Gender tengligi ijtimoiy tenglikni ham anglatadi.

Ta’kidlash joizki, qabul qilingan normativ-me’yoriy hujjatlar va amaliy chora-tadbirlar O‘zbekistonning gender siyosati sohasidagi muhim qadamidir va u qonunchilik hamda amaliyotning xalqaro me’yor va standartlariga to‘liq mos keladi, shu bilan birga, ularning bir qismi BMTning inson huquqlari bo‘yicha idoralari tavsiyalariga asoslangan. Gender tehglik masalasi jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, millatlar, davlatlar, madaniyat va sivilizasiyalar bilan uzviy aloqada bo’lib, bu masalaning yuzaga kelishi, rivojlanishi ijtimoiy-tarixiy jarayonlarning bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o’tishi bilan bog‘liqdir. Olimlar ayollar masalasini jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq ravishda tahlil qilish natijasida kishilarning ijtimoiy birligi, jamiyat bo’lib yashashi uchun zarur bo’lgan oila, urf-odat, madaniyat, xalqaro va sivilizasiyalararo munosabatlar, din, mehnat va jamoat tashkilotlariga uyushish katta ahamiyat kasb etishini ilmiy ifodalaganlar. Gender g‘oyasigacha o’tish evolyusiyasi mobaynida quyidagi ijtimoiy-tarixiy bosqichlar bosib o’tildi. Mazkur bosqichlar to’rt tasnifiy xususiyatlarga ega bo’lib, ular quyidagilardir:

1. Diniy konfessional taqiq tizimi amal qilgan. Tarixiy manbalar aynan ayolni insoniyat madaniyatining asoschisi deb atashadi. Haqiqatan ham mehnatning ibtidoiy jamoa tuzumida taqsimlanishiga qarab erkaklar ov qiluvchilar, ayollar esa hosil yig‘uvchilar vazifasini bajarganlar. Faqat ayolgina yerdan to’yimli o’simlik ildizlarini, inlardan mayda jonivorlarni, hashoratlar lichinkasini qazib olish bilan mashg‘ul bo’lgan.

Rivoyatlarda olovni kashf etganlar erkaklar timsolida uchraydi. Ayollar olovning xususiyatlarini o’rganish, uni turmushda qo’llash, uyni isitish, ovqat tayyorlash kabi

zaruratlarni bajarganlari haqida hikoya qilinadi. Kiyim-kechak va oyoq kiyimlarini ham ayollar kashf etishgan.

Ona urug‘i davrida ayollarning mavqyei yuqori bo’lgan. Ayol asosiy ishlab chiqaruvchi kuch, ro’zg‘orni muhofaza qiluvchi, bola tarbiyalab, avlodning ko’payishini ta‘minlovchi zot hisoblangan. Bu esa unga qabila hayotida yetakchilik qilish imkonini bergan. Biroq patriarxat davriga o’tilishi bilan ijtimoiy-huquqiy muvozanat ayoldan erkak tomonga og’adi va erkak asosiy ishlab chiqaruvchi kuchga, davlatni boshqaruvchiga aylanadi. Ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning keyingi bosqichlari ayolni erkakka qaram qilish, uning psixologik, xo’jalik yuritish va bola ko’rishga bo’lgan ehtiyojlarini qondirish yo’lidan bordi.

Ayollar va erkaklar teng huquqliligi masalasi qadim zamonlardan buyon qizg‘in bahslarga sabab bo’lib kelgan. Miloddan 400 yillar avval yashagan sofist Antifont o’z asarlarida barcha odamlarning tabiat tomonidan teng qilib yaratilganligi haqidagi g‘oyani birinchilardan bo’lib ilgari surgan. Uning fikricha, tabiat barchani: ayolni ham, erkakni ham teng qilib yaratadi, lekin insonlar o’zlarini tengsiz holatga soluvchi qonunlar odamlarning o’zaro kelishuvi natijasidir.

Tabiiy huquqlar tengligi va barcha odamlarning erkinligi haqidagi g‘oyani sofizm oqimining boshqa namoyondalarida ham uchratamiz. Jumladan, Likofronning fikricha, faqat qonunlargina shaxsiy huquqlarning kafolati bo’lishi mumkin. Shunday qilib, ayol va erkak teng huquqliligi muammosi doimo hur fikrli insonlar diqqat markazida bo’lgan. Biroq aynan ayolning erkak bilan teng huquqli ekanligini e’tirof etgan mutafakkir qadimgi yunon faylasuf olimi Pifagor edi. U odamlarning turmushi isloh qilinishi hamda falsafaning huquq va erkinlik to’g‘risidagi xulosalariga muvofiqlashtirilishi kerakligi haqidagi tasavvurlarni rivojlantirgan. Ushbu nuqtai nazardan u o’zining falsafiy qarashlarida ayol va erkakning teng qilib yaratilishi haqidagi fikrni ilgari suradi. Pifagorning maslakdoshlari esa bu g’oyani davom ettirganlar. Ular inson hayoti adolat va ma’lum chegara, ya’ni o’z- o’rnini bilish va his qilish asosida qurilishi lozimligini ta’kidlaydi. Ushbu mazmundagi g’oyani yana bir yunon mutafakkiri Suqrot qonunlarning obyektiv ahloqiy tabiati to’g’risidagi falsafiy ta’limotida rivojlantirgan. Jumladan, u ham insonlarning tabiiy huquqlari tengligini e’tirof etar ekan, to’g’ri va adolatli qonunlarga amal qilinsagina inson erkinligini ta‘minlash mumkinligi g‘oyasini ilgari suradi.

Xulosa qilib aytishimiz lozimki, talabalarni gender tengligi ruhida tarbiyalashning ijtimoiy psixologik omillari aniqlanib usul va vositalarini belgilansa talabalarni gender tengligi ruhida tarbiyalashning samaradorligi oshadi. Bundan tashqari talabalarni gender tengligi ruhida tarbiyalashda integratsiyalashgan texnologiyalardan foydalanishga yo‘naltirilgan o‘quv-metodik ta’minot ishlab chiqilsa o‘quv jarayoni sifati oshiriladi tadqiqot davomida ishlab chiqilgan dastur va psixologik tavsiyalar talabalarni o‘qitish jarayoniga joriy etiladi.

Gender tenglik bo‘yicha institutsional choralarga kelsak, ayni paytda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tarkibida ayollar huquqlarini ta’minlash va kamsitishning har qanday shakliga barham berish bo‘yicha milliy qonunchilikda xalqaro standartlarni uyg‘unlashtirish bilan shug‘ullanuvchi yangi Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi tashkil qilingan. Bundan tashqari, mehnatga oid huquqlarning kafolatlari va qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish, uydagi

zo‘ravonlik qurbonlariga yordam berish maqsadida zo‘rlik ishlatishdan jabr ko‘rgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o‘z joniga qasd qilishning oldini olish respublika markazi va Xotin-qizlar tadbirkorligi markazi kabi yangi tuzilmalar tashkil topdi. Bu, o‘z navbatida, Sharqona gender tengligining o‘ziga xos huquqiy tomoni hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. - Т.: Ўзбекистон, 2023.- 80 б.

2.O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida” qonuni 2019 yil 2 sentyabr

3. “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori

4.Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotiga kirish. Maqolalar to‘plami. – Toshkent, 2007.